




Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 4-iyul, seshanba,  
79 (23.800)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug komissiyasining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi.**

Komissiya raisi X.Muhammadiyev boshqargan majlisda dastlab saylov uchastkalaridagi ovoz berish jarayonlarini kuzatish uchun siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillariga kuzatuvchi mandatini berish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

## Dam olish kunlarida 50 ming nafar samarqandlik muddatidan oldin ovoz berdi

Siyosiy partiyalar viloyat tashkilotlari hamda viloyatdagi mahalla fuqarolar yig'inlari boshqaruv organi murojaatlari asosida okrug saylov komissiyasi tomonidan viloyatdagi 1112 ta saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlarini kuzatish uchun partiyalar va mahalla fuqarolar yig'inlari vakillariga kuzatuvchi mandati berildi.

Shundan so'ng "O'ztelekom" aksiyadorlik jamiyati Samarqand filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari Z.Xudoyberganov okrug hududida saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berdi.

Qayd etilishicha, barcha saylov uchastkalarida yuqori tezlikdagi internet va sifatli telefon aloqasini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilgan. Har bir tumandan kamida ikkitadan saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlarini onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratildi.

Majlisdan keyin o'tkazilgan matbuot anjumanida komissiyaning shu paytgacha amalga oshirgan ishlari va shu kunlardagi jarayonlar haqida ma'lumot berildi.

9-iyul kuni o'tkaziladigan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kampaniyasi hal qiluvchi pallasiga yaqinlashmoqda, dedi X.Muhammadiyev. Bu galgi saylov ham mamlakatimizda demokratik o'zgarishlar asosida, milliy va xalqaro saylov standartlariga to'la amal qilgan holda o'tmoqda. Saylov kampaniyasi O'zbekiston Res-

publikasi Saylov kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tasdiqlagan kalendar reja va tegishli qarorlar asosida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Markaziy saylov komissiyasining shu yil 20-iyundagi qarori bilan muddatidan oldin ovoz berish 2023-yil 28-iyunda boshlanib, 5-iyul kuni yakunlanishi belgilandi.

Qurbon hayiti munosabati bilan e'lon qilingan 5 kunlik bayram va qo'shimcha dam olish kunlarida ham saylov uchastkalarida fuqarolar muddatidan oldin ovoz berish huquqidan foydalandi. Shu kunlar davomida viloyat bo'yicha 50 ming nafar saylovchi muddatidan oldin ovoz berdi.

Saylovning ochiq va oshkorligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda muhim. Shuning uchun saylov bilan bog'liq barcha jarayonlar jurnalistlar uchun ochiq va oshkora tashkil etilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan ommaviy axborot vositalari xodimlari saylov kampaniyasi tadbirlarini faol yoritib bormoqda. Shu paytgacha viloyatimiz bo'yicha 120 nafardan ortiq OAV xodimlari akkreditatsiyadan o'tkazildi.

**Okrug saylov komissiyasi matbuot markazi.**

2023 9-IYUL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetaning bugungi sonida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug'bek Inoyatov hamda Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqolalar chop etilmoqda.

Mazkur maqolalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

**3-betga qarang.**

# O'ZBEKISTON BARCHAMIZ UCHUN YAGONA VATAN, YAGONA QALBDIR!

**O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan viloyatimizda ushbu shior ostida tadbirlar bo'lib o'tdi.**

Sana munosabati bilan davlat ramzlarini o'zida aks ettirgan O'zbekiston Respublikasi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti o'quv avtomobillari, yo'l-patrol xizmati avtomobillari hamda Milliy gvardiya otlig'laridan tashkil topgan "Vatanparvar avtokarvoni" Samarqand shahrining markaziy ko'chalari bo'ylab harakatlandi.

So'ng Ko'ksaroy maydonida yoshlar o'rtasida ushbu sanaga bag'ishlangan rasmlar tanlovi o'tkazildi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar Vatanni, tinchlikni madh etuvchi she'r va qo'shiqlar ijro etdi. Rasmlar tanlovi g'oliblariga sovg'alar ulashildi.

Tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari X.Ochilov, Oliy Majlis Senati a'zosi F.Toshev ishtirok etdi.



## Yoshlarimiz "Besh tashabbus olimpiadasi"da birinchi o'rinni egalladi

**Mahalla yoshlari o'rtasida joriy yilgi "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalari 4-aprelda boshlangan edi. Sport, madaniyat, san'at, kitobxonlik, axborot texnologiyalari va kasblar tanlovi bo'yicha 19 yo'nalishda 393 ming 134 nafar samarqandlik yoshlar musobaqalarning mahalla, sektor, tuman (shahar) va viloyat bosqichlarida bellashib, 309 nafari respublika yo'llanmasini qo'lga kiritdi.**



Olimpiadaning respublika bosqichida viloyatimiz sharafini himoya qilgan yoshlar sport musobaqalarida 17 ta oltin, 9 ta kumush, 12 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida

birinchi o'rinni egalladi, - deydi yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i Sh.Ro'ziyev. - "A" liga bahslarida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan 11 ta mahallada universal sport maydonchasi, "B" ligada birinchi o'rinni egallagan 4 ta mahallada Street Workout va "S" ligada birinchi o'rinni qo'lga kiritgan 1 ta mahallada Workout maydonchalari barpo etilishi belgilandi.

Jumladan, Paxtachi, Oqdaryo, Urgut tumanlarida ikkitadan, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Qo'shrabot, Toyloq, Narpay, Past Darg'om va Jomboy tumanlarida bittadan sport maydonchalari quriladi. **F.RO'ZIBOYEV.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida 2023-2024-o'quv yili kunduzgi ta'lim shaklida o'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish, o'simliklar karantini va himoyasi, suv bioresurslari va akvakultura kabi uchta yangi yo'nalish ochilmoqda. Bu haqda viloyat Matbuot uyida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.**

## Texnikumni a'lo baholarga bitirganlar suhbat asosida o'qishga qabul qilinadi

Yangi o'quv yili uchun universitetimizga bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakliga 535 ta davlat granti, 840 ta to'lov-kontrakt asosida kvota ajratildi, - dedi universitet rektori Xudoynazar Yunusov. - Shuningdek, sirtqi ta'lim shakliga 400 ta magistratura mutaxassisligiga 94 ta kvota berildi. Bundan tashqari, universitetning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lgan texnikumlarni a'lo baho bilan bitirgan abituriyentlar ajratilgan kvotadan tashqari suhbat asosida ikkinchi bosqichga qabul qilinadi. Faqat bunda abituriyentning bilimi sinalladi. Agar u texnikumni qizil diplom bilan bitirgan bo'lsa ham komissiya a'zolarining savollariga javob berolmasa, o'qishga qabul qilinmaydi. Suhbat asosida ikkinchi kursga qabul qilingan abituriyent to'lov-kontrakt asosida ta'lim oladi.

Ayni qabul jarayonlari davom etayotgan paytda universitetda abituriyentlar va ota-onalar uchun Call markaz telefonlari ishlab turibdi. Abituriyentlardan ko'proq hujjat topshirish jarayonida qancha to'lov qilish,



kimlar to'lovdan ozod etilgani haqida savollar tushmoqda.

Bugun universitetda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha 7 ta fakultet bo'lib, unda jami 22 ta ta'lim yo'nalishi, sirtqi ta'lim shaklida 13 ta mutaxassislik mavjud.

Matbuot anjumanida universitet mas'ullari qabul jarayoni bilan bog'liq savollarga javob berishdi.

**Xurshida ERNAZAROVA.**

## Yaponiyada Samarqand kunlari



**Yaponiyaning Nara shahrida Samarqand kunlari festivali o'tazilmoqda.**

Unda samarqandlik turizm sohasi vakillari, tadbirkor va hunarmandlar, madaniyat xodimlari ishtirok etmoqda.

Festivalning birinchi kunida Samarqandning turizm va investitsion salohiyatiga bag'ishlangan

konferensiya tashkil etildi.

Anjumanda keyingi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, Samarqandda sayyohlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, berilayotgan imtiyozlar haqida ma'lumot berildi.

Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov festival ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi.

Yaponiyalik turizm sohasi vakillarini hamkorlikda ishlashga taklif qildi.

Nara prefekturasi gubernatori Makoto Yamashita Samarqand va Nara o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanda mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini ta'kidladi.

Qayd etish lozim, 2021-yil 24-dekabr kuni Samarqand va Nara shaharlari o'rtasida do'stona munosabatlar to'g'risida shartnoma imzolangan.

Konferensiyada Samarqanddagi turistik kompaniyalar tomonidan taqdimotlar o'tkazildi.

Tadbir doirasida G2B, B2B uchrashuvlar tashkil etilib, mamlakatimizga yaponiyalik sayyohlar oqimini ko'paytirish bo'yicha ikki tomon turistik korxonalar o'rtasida hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Samarqand kunlari doirasida viloyat turizm, investitsiya, hunarmandchilik, gastronomiya salohiyatini namoyon etuvchi ko'rgazmalar o'tkazildi. Samarqand oshi tayyorlanib, mehmonlarga tortiq etildi.

Festivalga tashrif buyurgan mehmonlar samarqandlik xonanda va sozandalarning kuy-qo'shiqlaridan bahramand bo'ldi.

Tadbirlar davom etmoqda.



# DON – NON, RIZQ-NASIBA

**Avtomashina oynasidan atrofini kuzatib ketayotgan hamrohing "Ko'z tegmasin, bu yil g'alla yaxshi bo'пти, qarang, boshqalar dengiz to'liqidek chayqalib turibdi", dedi yo'l chetidagi g'allazor manzarasi-dan zavqlanib.**

– Ha, nimasini aytasiz, ko'z quvona-di-ya. Xalqimizning rizqi-da bu. Don ko'p bo'lsa, to'kinchilik bo'ladi, – dedim uning gaplarini ma'qullab.

– Ayrimlar o'rik ko'p bo'lgan yili g'alla hosildorligi yaxshi bo'lmaydi, deyishadi. Shu gaggayam ishonmay qoldim-da. Mana, bu yil o'rik ham serob, bug'doy ham avvalgi yillardagidan yaxshi bo'lsa yaxshiki, kam emas. Ko'p tumanlarda, hatto qo'shni viloyatda ham bo'ldim, g'alla juda ko'p.

– Ha, shunday gap bor. Bir vaqti bilan aytilgandir-da. Lekin hozir mehnat qilgan, yerga qaragan odam kam bo'layotgani yo'q. Ayniqsa, g'allachilikda. Non – rizq-ro'z. Elning rizqini yaratayotgan odamning rizqiyam butun bo'ladi.

Keyin ikkimiz qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, odamlarning yerga munosabati o'zgarгани, manfaatdorligi oshayotgani haqida gaplashib ketdik.

## YERGA MEHR BERSANGIZ, BARAKA BO'LADI

Xalqimiz mehnatkash. Bir qarich yer bo'lsin, undan samarali foydalanishga, rizq yaratishga harakat qiladi. Bu xususiyat keyingi yillarda yana ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalqimizning to'raqdan foydalanish madaniyati oshdi, aholi bandligini ta'minlash va daromad manbai yaratish uchun yoshlar va ehtiyojmand oilalarga yerlar uzoq muddatli ijaraga berilmoqda. Bu orqali ro'zg'orini obod qilib, daromad topayotgan, hayotini o'zgartirayotgan kishilar kam emas.

Qishloq xo'jaligida klaster tizimi joriy etilgani, paxta va g'allachilik davlat buyurtmasining bekor qilingani, yetishtirilgan hosilni bozor narxida sotish yo'lga qo'yilgani ham sohada yangilanish va o'zgarishlarning asosi bo'lmoqda.

Fikrlarimni xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, Narpay tumanidagi "Paxtakor" fermer xo'jaligi rahbari Sodik Haqberdiyev ma'qulab, o'zining faoliyati misolida sohada o'zgarishlarni sanab ketdi.

– 1993-yilda, fermerlik harakati endi boshlanayotgan paytlarda ish boshlaganimiz, – dedi S.Haqberdiyev. – O'ttiz yillik tajribamiz bor bu sohada. O'tgan yillar davomida eh-he, ne sinovlar boshimizdan o'tmadi. Holva degan bilan og'iz chuchimaydi, deganlaridek, yerni olib, men fermerman deb yurish bilan biringiz ikki bo'lmaydi. Davlatni, odamlarni ishonitirib, yerni oldingizmi, ishlash kerak. Mehnatningizdan o'zingiz ham, boshqalar ham manfaatdor bo'lishi lozim.

Hozir tasarrufimizda 150 gektar yer maydoni bor. 72 gektarga paxta, 75 gektarga

targa g'alla ekamiz. G'alla maydonimiz ko'proq. Sababi – shu soha serdaromad bo'lyapti. Keyingi yillarda g'alla yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etish bo'yicha davlatimiz rahbarining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Ana shu hujjatlar asosida g'allachilik klasterlari va fermer xo'jaliklariga yetishtirilgan hosilning ma'lum qismini erkin birja savdolari orqali, qolganini to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida erkin sotish huquqi berildi. Shuningdek, g'alla yetishtirish uchun kredit mablag'laridan erkin foydalanish, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va qishloq xo'jaligi texnikalarini to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish huquqiga ega bo'ldik.

Bunday imkoniyatlar yaratilgach, g'allachilikka e'tibor oshdi. O'zimiz ham, ishchilarimiz ham yerga mehr berib ishlayapmiz. Texnikalarimiz yetarli – haydov traktoridan kombayngacha o'zimizda bor. Barcha agorotexnik tadbirlarni o'z vaqtda amalga oshiramiz, o'g'itini beramiz, sug'oramiz. Shuning hisobidan bu yil har gektardan o'rtacha 70 sentnerdan hosil oldik. Shartnoma rejasini ortig'i bilan bajardik. Xo'jalik a'zolariga ham, o'zimizga ham yetarli miqdorda g'alla qoldi. Maqtanishga yo'ymasangiz aytaman – bu yilgi g'alladan 1,5 milliard so'm daromad qilishni mo'ljallab turibmiz. Bir men emas, tumandagi boshqa fermerlar ham g'alladan bu yil yaxshigina daromad qilishadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida bugungi kunda ichimlik suv ishlab chiqarish sexi ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, bir gektarlik issiqxonada limon va sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi.

Keyingi paytda suv ta'minotida taqchilik kuzatilayotgani sababli xo'jalikning 72 gektar maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etildi. Fermerning aytishicha, bu borada ham davlatning qo'llab-quvvatlovi xo'jalik uchun har tomonlama manfaatli bo'lmoqda. E'tiborlisi, tomchilatib sug'orish paxta va g'alla hosildorligi oshishiga xizmat qilmoqda.

## SAMARQANDDA 723 MING TONNALIK G'ALLA XIRMONI YARATILADI

Bu yil viloyatimizdagi 14 ta g'allachilik klasteri hamda 4651 fermer xo'jaligi tomonidan 94,2 ming gektar maydonda boshqoqli don yetishtirildi. Ushbu maydonlardan 723 ming tona hosil yig'ishtirib olish ko'zda tutilgan. Jumladan, davlat zaxirasi uchun 235 ming tona g'alla jang'arish bo'yicha shartnomalar tuzildi. Hozirda viloyatda hosilni yig'ishtirib olish ishlari qizg'in pallasiga kirgan.

– O'rim-yig'im ishlarini sifatli tashkil etish uchun viloyatda 269 ta otryad tuzildi, – deydi viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi shu'ba boshlig'i Tohir Duvlanov. – Har bir otryadga bittadan g'alla o'rish kombayni mavjud. Ularning 21 tasi yangi – "Dominador-260" va "Nyu Holland" rusumli kombaynlar hisoblanadi. Shuningdek, 1108 ta don, 161 ta yoqilg'i tashish texnikalari, 73 ta ko'chma ustaxona xizmatlaridan samarali foydalanilmoqda.

Bu yil qishning nisabatan sovuq kelgani, bahordagi suv tanqisligiga qaramay, fermerlarning fidokorona mehnati bilan g'alladan mo'l hosil yetishtirildi. Shu paytgacha o'rilgan g'alla maydonlarida hosildorlik 75-80 sentnerni tashkil etmoqda. Bu, albatta, uch-to'rt yil oldingi raqamlardan farq qiladi.

Misol uchun, o'tgan yil viloyatda 94,1 ming gektar maydonda g'alla parvarishlanib, jami 678,7 ming tona don yig'ishtirib olingan. O'rtacha hosildorlik 72 sentnerni tashkil etgan. E'tiborli tomoni, g'alla yetishtirgan 4650 fermer xo'jaligining 166 tasida hosildorlik gektariga 80-90 sentner, 725 tasida 65-70 sentnerdan oshgan. O'tgan yil fermer xo'jaliklari ixtiyorida 400 ming tonnadan ortiq g'alla qoldi. Daromad ham shunga yarasha bo'ldi. G'allachilik uchun 1 trillion 905 milliard so'm mablag' sarflanib, 2 trillion 375 milliard so'm daromad olindi. Rentabellik 24,7 foizni va sof foyda 470 milliard so'mni tashkil etdi.

## BULUNG'URLIKLAR HISSASI – 48 MING TONNA

Agrar xo'jaligi asosan meva-sabzavot, uzum yetishtirishga ixtisoslashgan Bulung'ur tumanida bu yil 784 fermer xo'jaligi tomonidan 6290 gektar maydonda g'alla yetishtirildi.

– Tumanimiz fermerlarining klaster bilan tuzgan shartnoma rejasini 15 ming 801 tonnani tashkil etadi, – deydi Bulung'ur tumani hokimi o'rinbosari Abdumutalib Rizayev. – Lekin yalpi hosil 48 ming tonnadan oshishi kutilmoqda. Ayni paytda dalalarda g'alla o'rini davom etmoqda. Hosildorlik 60 sentnerdan ortiqni tashkil etyapti. Bu avvalgi yillarga nisbatan 7-12 sentner ko'p demakdir. Hosildorlikning yildan-yilga yuqori bo'lishining bosh omili – fermerlarning manfaatdorligi oshishi bilan bog'liq, desak, xato bo'lmaydi. G'alla yetishtirish, sotishda fermer va klasterlarga erkinlik berilishi, tizimda bozor tamoyilining ishlay boshlagani o'z natijasini ko'rsatyapti. Yaxshi ishlagan fermer shunga yarasha daromad olyapti, ishchilarini rozi qilyapti. Bizda juda katta maydonlarda g'alla yetishtiradigan fermer xo'jaliklari ko'p bo'lmasa-da, yuz million so'mlab daromad qilayotganlar kam emas. Misol uchun, o'tgan yil "Is-tiqloq nur ziyosi", "Shams-T", "Xoliqxon dalalari", "Erganakli nur ziyosi" fermer xo'jaliklarining har biri g'allachilikdan 200 million so'mdan ortiq daromad qildi. Bu yil ularning safi yana ham kengayishi kutilmoqda.

Shu kunlarda Samarqand viloyati fermerlari shartnoma rejasini bajarish arafasida turibdi. Yaqin kunlarda ularning yuzi yorug' bo'ladi. Ayni chog'da ham ularning kayfiyati yuqori. Sababi – dalalarda ko'zlangan hosil yetishtirilgan, dastlabki hisob-kitoblar salmoqli daromad darak berib turibdi. Kech kuzdan jazirama saratongacha qilingan mehnatning mahsuli dalalarda o'zini namoyon etmoqda.

**G'olib HASANOV, Alisher ISROILOV (surat).**

## 7,5 ming gektar yer maydoni dehqon xo'jaliklari uchun ajratiladi

**O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshiriladigan vazifalarga bag'ishlangan davlat dasturiga asosan, joriy yilda ham aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga doimiy ish o'rinlari yaratish belgilangan.**

Jumladan, ishsiz aholiga yer ajratish va dehqon xo'jaliklari tashkil etish orqali ularga muqim ish o'rni va doimiy daromad manbai yaratish rejalashtirilgan. Bu borada tegishli mas'ul idora-tashkilotlar tomonidan yilning o'tgan davrida kerakli rejalar ishlab chiqildi, yer maydonlari o'rganildi, fermer xo'jaliklari balansidagi paxta va g'alladan bo'shagan yer maydonlari tegishli tartibda ajratilib, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan aholiga ajratish orqali yangi dehqon xo'jaliklari tashkil etish maqsadida onlayn savdolariga chiqarildi.

– Viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda paxta va g'alladan bo'shagan 7586 gektar yer maydoni 18520 ta lotga bo'lingan holda "E.aksion" onlayn savdo platformasiga joylashtirildi, – deydi viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Samad Saidov. –



Bugungi kunda 17622 ta lotdan iborat 7126 gektar yer maydonining g'oilblari aniqlandi. Shundan "Yoshlar daftari"ga kiritilganlar uchun 471,95 gektar yer maydoni 1164 ta lotda, "Ayollar daftari" doirasida 260,42 gektar yer maydoni 653 ta lotda, "Temir daftar"dagilar uchun 22,84 gektar 61 ta lotda, mi-grantlar uchun 1843,94 gektar 4113 ta lotga bo'lingan holda "E.aksion" savdo maydonchasiga chiqarildi.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV.**

## VILOYATNING SANOAT SALOHIYATI QANCHAGA ORTDI?

**Joriy yilning 30-31-may kunlari Jomboy tumanidagi "Sof Expo Samarqand" ko'rgazmalar majmuasida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi va Samarqand sanoatchilari forumi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada 300 dan ko'proq mahalliy ishlab chiqaruvchi 1700 dan ortiq mahsulot turlari va yoshlarning startap loyihalari, ilmiy ishlanmalari bilan qatnashdi.**

Ko'rgazmadan ko'rinib turibdiki, viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turlari ko'paygan. Viloyatning sanoat sohasi salohiyatini o'rganish maqsadida statistik raqamlariga e'tibor qaratamiz.



Viloyat bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 2 trillion 11,2 milliard so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2016-yilga kelib, 7 trillion 446 milliard so'mga yetgan bo'lsa, 2022-yil yakuni bilan 29 trillion 373,6 milliard so'mni tashkil etmoqda. Ya'ni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2022-yilga kelib, 2010-yilga nisbatan 14,6 barobarga oshgan bo'lsa, 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

hajmi 2010-yilda 1 trillion 412,4 milliard so'mni, 2016-yilda esa 5 trillion 79,8 milliard so'mni hamda 2022-yilga kelib, 18 trillion 374,5 milliard so'mni tashkil etmoqda.

Viloyat bo'yicha ishlab chiqarilgan iste'mol mollari aholi jon boshiga 2010-yilda 442,1 ming so'mdan to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga kelib, 1 404,1 ming so'mga hamda 2022-yilda 4509,2 so'mga to'g'ri kelgan. O'sish sur'atlarini olib qaraydigan bo'lsak, 2022-yilga kelib, 2016-yilga nisbatan 3,2 martaga oshgani ko'rinib turibdi.

Bugungi kunda viloyatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining yuqori qismi Samarqand shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Statistik raqamlarga qaraydigan bo'lsak, 2010-yilda viloyat bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 59,7 foizi Samarqand shahri hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016-yilda 41,8 foizini hamda 2022-yilda 45,2 foizini tashkil etmoqda. 2022-yil yakuniga ko'ra, 2016-yilga nisbatan viloyatimizning Toyloq tumanining viloyatdagi ulushi 7,8 foiz (2010-yilda 1,8 foiz), Jomboy tumani 10,6, (2010-yilda 3,5 foiz) Samarqand tumani 7,0 foiz (2010-yilda 4,8 foiz) bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

**Fazlulloh ESHONQULOV, viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati rahbari.**

## BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hajmi 4 749,1 milliard so'mni, ushbu xo'jaliklar mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi esa 92,9 foizni tashkil etdi.

## Qon topshiring, hayotni baham ko'ring!

**Viloyat qon quyish markazi jamoasi joylarda shu shior ostida turli aksiyalar, viktorinalar, davra suhbatlari o'tkazmoqda.**

Markaz shifokorlarining Samarqand shahridagi 5-oilaviy poliklinika xodimlari bilan hamkorlikda tashkil etgan navbatdagi aksiyasi Samarqand shahridagi Rudakiy nomi mahallada o'tkazildi.

Aksiya davomida ushbu mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan yigirma nafarga yaqin fuqaro beg'araz qon topshirdi.

**SH.JALOLOVA, viloyat qon quyish markazi shifokori.**

## Yangi korxonada 150 nafar xotin-qiz ishli bo'ldi



**Samarqand shahridagi "Daka intex" mas'uliyati cheklangan jamiyati 2017-yilda faoliyat boshlagan. Korxonada yiliga uch million dona tayyor trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, joriy yilning iyun oyida Bulung'ur tumanida mazkur korxonaning filiali ishga tushirildi.**

– Olti yil oldin Xitoy, Portugaliya, Turkiya va Tayvandan zamonaviy uskunalar olib kelib, 150 nafar ishchi bilan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni boshlaganimiz, – deydi "Daka intex" MCHJ rahbari Rustam Qarshiboyev. – Ayni paytda korxonamizda 500 nafardan ziyod ishchi faoliyat olib bormoqda. Mahsulotlarimiz Italiya, Germaniya, Rossiya va Ruminiya davlatlariga eksport qilinayapti. Xususan, o'tgan yil 9,5 million dollarlik tayyor trikotaj mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, joriy yilning o'tgan davrida qariyb 5 million dollarlik mahsulot xorijga sotildi. Yil oxirigacha bu ko'rsatkichni 12 million dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Yaqinda faoliyatimizni kengaytirish maqsadida Bulung'ur tumanida ham "Daka intex" korxonasining filialini ochdik. Bu yerda 20 ta mahalla xotin-qizlarini chevarlikka o'qitish bilan birga, 150 nafar ishsiz xotin-qizning bandligi ta'minlandi. – Qo'lmda hunarim bor, lekin ishsiz edim, – deydi Mingchinor mahallasida yashovchi Muhayyo Boborajabova. – Yaqinda mahallamizda ochilgan korxonaga ishga kirib, bolalar va kattalar uchun zamonaviy bichimlarda liboslar tikishni mukammal o'zlashtirdim. Endi bu yerda ishlash bilan birgalikda o'zim ham tikuv sexini ochishni rejalashtiryapman.

**F.R.O'ZIBOYEV.**



Samarqandda yurt va millat dardiga darmon bo'layotgan olimlar qatorida Mahmud Lutfillayevning barakali ilmiy va pedagogik faoliyati maqtovg'a loyiq. Ustozning ilm-fan ravnaqi yo'lida bosib o'tgan sermashaqqat yo'lga nazar tashlashni joiz deb topdik.

## EL E'ZOZLAGAN OLIM

Mahmud Lutfillayev 1953-yil 2-iyulda Urgut tumanining Chep qishlog'ida tug'ilgan. Ilk ta'limni qishloq maktabida olgach, Samarqand davlat universiteti amaliy matematika fakultetiga o'qishga kirdi. Universitetda a'lo baholarga o'qigan bois unga ustozlari o'qishini davom ettirishni maslahat berishdi. Mahmud elektron hisoblash mashinalari (EHM) ning matematik ta'minoti kafedrasida assistent vazifasida ish boshladi.

Bo'lajak olim aspiranturani muvaffaqiyatli bitirib, 1989-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. M.Lutfillayev universitetda elektron hisoblash mashinalarining matematik ta'minoti kafedrasida mudiri, hisoblash markazi direktori lavozimlarida mehnat qildi. Ayni paytda universitetda joriy yilda yangi tashkil etilgan mediamarkazga rahbarlik qilmoqda.

Shuningdek, u qator yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi ilmiy-texnik kengash a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mahmud Lutfillayev

o'zining serqirra faoliyati davomida bir qancha ilmiy loyihalarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida "Multimedial elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar yaratish va o'quv jarayoniga tatbiq etish" tadqiqot mavzusi bo'yicha multimedial elektron qo'llanmalar yaratildi va respublikamizning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida hamda kasb-hunar kollejlari, akademik litseyleri o'quv jarayoniga joriy etildi.

M.Lutfillayev oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va o'quv jarayonida kompyuter imitatsion modelini yaratish muammolari bo'yicha respublikamizdagi yirik mutaxassislardan biridir. Yangilikka intiluvchi novator oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash va o'quv jarayonida kompyuter imitatsion modelini yaratish muammosini ishlab chiqish bilan shug'ullanib, pedagogika va axborot texnologiyalari sohasida yangi ilmiy yo'nalishga asos soldi.

Mahmud Lutfillayevning



ilmiy-uslubiy faoliyati uning 350 dan ortiq ilmiy ishlarida jamlangan bo'lib, ulardan to'rttasi o'quv qo'llanma, uchta monografiyadir. Yana ikkita monografiyasi Germaniyaning Lambert nashriyotida chop etilgan.

U 2006-yilda dissertatsiya himoya qilib, pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Shaxsiy hayotda ham ustoz boshqalarga ibrat bo'ladigan sevimli ota va murabbiy. U oilada ijodiy muhit yaratgani uchun farzandlari pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohiblari bo'lishdi. Ular Samarqand shahridagi oliy ta'lim muassasalarida yoshlarga ta'lim-tarbiya bermoqda.

Taniqli pedagog olim, yoshlarning sevimli murabbiyi, pedagogika fanlari doktori, professor Mahmud Hasanovich tavalludiga 70 yil, mehnat faoliyatiga 50 yil to'lgani munosabati bilan qutlaymiz.

**Narziqul SHODIYEV, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori. Mirzaali FAYZIYEV, pedagogika fakulteti dekani, dotsent.**

## Tarbiyadagi bo'shliq bolaga ziyon keltiradi

Maktabda o'quvchilarga tarix fanidan dars beraman. O'qituvchilik kasbini o'zim yoqtirib tanlaganman. Biroq maktabda o'quvchilarga bilim berish oson emas ekan. Ular bilan ishlab, tanlagan kasbim murakkab va mashaqqatli ekanini tushundim. Yillar davomida hayotiy tajribamdan shuni angladimki, o'quvchiga bilimning to'liq yetib borishi uchun uni to'g'ri fikrlashga tayyorlash kerak.

Kelajakka bo'lgan ishonch, aniq maqsad, orzu va umidi bor o'quvchi bilim olishga intiladi, uning samara berishini biladi. Bunday o'quvchi bilan ishlash maroqli. Maktabda quvnoq, vazifalarni vaqtida bajaradigan yoki qat'iyatli, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari intiladigan o'quvchilar bor. Hatto siz bergan ma'lumotlarga yangi, qiziqarli ma'lumotlar qo'shib o'rganib keladi.

Yana shunday o'quvchilar borki, ular bilim olishga qiziqmaydi, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishini bilmaydi, to'g'rirog'i, bu haqda o'ylamaydi ham. Afsuski, ota-onasi xoriyda, bobo-buvisi yoki qarindoshi qaramog'ida qolgan



bolalarning fikri, dunyoqarashi mana shunday bo'ladi. Kuzatishlarimdan shunga amin bo'ldimki, to'liq oila bag'rida yashaydigan farzand bilan to'liqsiz oilada o'sayotgan bola o'rtasida katta farq bor. Agar ota-onalar farzandi kelajagiga befarq bo'lmay, ularga ko'proq e'tibor qaratsa, ta'lim olishga qiziqmaydigan o'quvchilar soni kamayar edi.

**Nazokat MELIYEV, Samarqand shahar 55-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.**



## Ular nega e'tibordan chetda?

**Atoyi, Furqat, Bedil, Turdi Farog'iy va Mirtemir kabi adiblar o'zbek adabiyotining ulug' darg'alari. Xo'sh, bugungi kitobxon ularning hayot yo'li haqida qanchalik ma'lumotga ega, ijodidan qay darajada bahramand?**

Yaqinda bu ijodkorlarning kitoblarini izlab, shahrimizdagi kitob do'konlarini aylandim. Afsuski, shunday ulug' adiblarimiz bilan bog'liq birorta she'riy kitob yoki adabiyot topa olmadim. Bundan chiqdi, keyingi paytlarda bu kabi shoirlarning asarlari, she'riy to'plamlari chop etilishi e'tibordan chetda qolgan.

Aslida esa biz ularning faqat nomlarini bilish bilan cheklanib qolmay,

ijodiy merosini chuqur o'rganishi, tafakkuri o'sadi, milliy o'zbek adabiyoti haqidagi bilimlarimiz yuksaladi. Shuning uchun salohiyatli adiblarimiz kitoblari hamma yetib bora olmaydigan arxivlarda yoki tarixiy qo'lyozmalar orasida emas, har bir maktab kutubxonasi, kitob do'konidan topilsa, unga qiziquvchilar ko'payadi, nazarimda.

**Ja'far ABDUSHUKUROV.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

5-IYUL

**Dilorom SALOHIIY** – 1959-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

7-IYUL

**Normurod NARZULLAYEV** – (1934-2006) Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri.

**Hamroqul HAYDAROV** – (1949-2007) Samarqand tumanida tug'ilgan. Duradgor usta. "Do'stlik" ordeni sohibi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

# SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallangan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan choyxona binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Toyloq tumani, "Tepaqishloq" MFY, Tepaqishloq qishlog'i, 48-uy	0,0109	109,51	104 099 800,0	28.07.2023 y.	28.07.2023 y.

### Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish markazi" DUKning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

### Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli ob'yektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari

mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabineti"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

### Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabi-

net"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limida qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana anadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi

Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

**Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy.**

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarni muvofiqlashtirish bo'limi.**

**Ma'lumot uchun telefonlar:** 66-233-96-64, 99-447-17-70  
**Faks:** 66-233-73-54

**"Facebook" dagi rasmiy sahifa:** Sam Dav Aktiv  
**Veb-sahifa:** privatization.davaktiv.uz  
**Internet tarmog'idagi veb-sayt:** samarqand@davaktiv.uz

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Usmanov Muxamedjan Fayzullayevichga (2022-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Andriyevskiy Andrey Vitalevichga (2022-yil 28-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Abdurazakov Abdixamidga (2020-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.**



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 407 nusxada chop etildi. Buyurtma 360. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**Y.MARQAYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda